

Fazliddin O'taganov
Surayyo Matyokubova

**MILLIY
SERTIFIKAT
ONA TILI VA
ADABIYOT
NASAF**

Gologrammasiz kitob qalbaki
hisoblanadi


Toshkent
«Spectrum Media Group»
2025

1-variant

1. Imloviy jihatdan TO‘G‘RI yozilgan so‘zlar qatorini toping.

A) avom, baqanti, valiyne‘mat	B) galeriya, diniy-mistik, yozg‘irmoq	C) janubiy g‘arb, zang‘ar, idramoq	D) yo‘rmado‘z, kertik, lampashisha
-------------------------------------	---	--	--


2. Imloviy jihatdan NOTO‘G‘RI yozilgan so‘zlar qatorini toping.



3. Qaysi javobda belgilangan so‘z «sabab»ni ifodalagan?

- A) Cho‘ntakdagi pul qabrda sherik bo‘lolmaydi.
 B) G‘alati hayajoni uni duduqlantirdi.
 C) Meros mavzusiga gap burilgach, janjal kelib chiqdi.
 D) Savolni oddiy ko‘z qarashi bilan yecha olmaysiz.


4. Qaysi qatorda o‘zaro ma‘nodoshlik hosil qila oluvchi so‘zlar qatori berilmagan?



5. Qaysi gapda qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud?

- A) *Bolalarim orasida bilimdonrog'i – shu.*
- B) *Nomardlik mardlikdan keyingi paydo bo'lgan jarayondir.*
- C) *Momojonlarim, bunchalar ibolisizlar-a!*
- D) *Orolbo'yida ilgari kemasozchilik ustaxonalari bo'lgan.*

6. *Gullamoq* so'zining ma'nolari to'g'ri izohlangan javoblarni aniqlang.



- A) 1, 2, 4
- B) 2, 3, 4
- C) 1, 5
- D) 3, 4, 5

7. *Hikikomoriga aylanib qolish sababi hammada ham bir xil emas: bunga kimdadir shaxsiy fe'l-atvor, kimdadir sotsiofobiya va yana kimdadir tushkunlik yoki autistik spektrning buzilishi sabab bo'ladi. Samarali yakun topgan muolajalar tahlili diqqatni tortmay qo'ymaydi: hikkini jamiyatga qaytara olgan mutaxassislarning aksari sobiq hikkilar ekan.* Gapda qo'shimchani qaysi turi ishtirok etmagan?

- A) *ot va fe'lning lug'aviy shakllari*
- B) *ot va fe'lning munosabat shakllari*
- C) *ot va fe'l yasovchi qo'shimchalar*
- D) *so'z yasovchi qo'shimcha*

8. Har uchala gapda ham ishtirok etgan fe'l shakllari/turini aniqlang.

1. Ilon Maskning aytishicha, aqlli robotlar bir kunmas bir kun odamzodni qirib tashlaydi.

2. Kelajakda bilim uchun kurash bo'lmaydi, kurash yaratuvchanlik uchun bo'ladi.

3. Bugun siz uchun yangilik sifatida qabul qilingan hodisa zum o'tmay atrofdegilar uchun yangilik bo'lmay qolmoqda...

1) sifatdosh; 2) sof fe'l; 3) aqliy fe'li; 4) o'timsiz fe'l; 5) III shaxs birlik ma'nosi; 6) buyruq-istak mayli.

A) 1, 4

B) 2, 5

C) 1, 6

D) 2, 3, 6

9. Berilgan gapda ishtirok etgan ilk ko'makchi qanday ma'no-munosabat ifodalanganini toping.

Odam o'z maqsadi sari harakat qilganida kim bilandir bahslashishga yoki kimgadir biror nimani isbotlashga hojat yo'q.

Maqsad qo'ydingizmi, demak, reja qilgan ishning yarmini bajaribsiz. Endi ortga qaramasdan, qolganini ham amalga oshirish uchun harakatdan to'xtamang.

A) maqsad

B) vosita

C) payt

D) yo'nalish

10. Berilgan matn bo'yicha to'g'ri fikrni toping.

Shvetsiyada qurilish ishlari borayotgan hududlarni o'rab turuvchi to'siqlarga ichkaridagi jarayonni kuzatish uchun oynavand archalar o'rnatiladi.

Darchalar ham kattalar, ham bolakaylar uchun mo'ljallangan, ya'ni turli balandliklarda joylashgan.

A) Atoqli ot sifatlovchi aniqlovchiga to'g'ridan to'g'ri bog'langan.

B) Barcha gapda ega ishtirok etgan.

C) *Yasama so'z → yasama so'z → yasama so'z ketma-ketligi o'zaro bir-biriga tobelanib kelgan.*

D) *Vositasiz to'ldiruvchi faqat aniqlovchiga tobelangan.*

11. Gapdagi so'zlarning grammatik va mazmun jihatdan bog'lanishi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang. Ma'lum bir shaharda yahudiylar ba'zan o'luklarini oqshom eltib ko'marlar. Na uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo'lsa, o'luk va to'y uchun haftalar, hatto oylar ila ishdan qolurmiz. Holbuki, shore'i a'zam, payg'ambari akram sallolohi alayhi vasallam hazratlari o'lganni tez ko'mub va ko'mgandan so'ngra tez tarqalib, ishg'a ketmoqg'a va o'lukxona xalqini uch kundan ziyoda ta'ziya tutmasg'a, qaro kiymasg'a, kir, falokat bo'lmasg'a amr etarlar.



A) *yahudiylar o'luklarini, ko'mgandan so'ngra tarqalib*

B) *kunduzi ishdan qolarlar, xalqini uch kundan.*

C) *o'lukxona xalqini, na uchun*

D) *ishg'a ketmoqg'a, shaharda ko'marlar*

12. Qaysi gaplarda vergul bir xil punktuatsion qoida bo'yicha qo'llangan?



A) 1, 2

B) 4, 5

C) 1, 3, 6

D) 3, 4, 5

13. «Qoplon» hikoyasi haqida to'g'ri fikrni toping.

- A) Asardagi bosh qahramon – Qoplonning bevafoqligi o'quvchida taajjub uyg'otadi.
- B) Tillayev va ayoli kishilarga yaxshilik qilishni biladigan odamlar edi.
- C) Qurbonboy noilojlikdan yangi rahbarning xizmatiga o'tib, Tillayevnikidan ketadi.
- D) Yangi rahbar xudbin shaxs bo'lib, Tillayevni biroz mensimaydi.

- A) Asarning bosh qahramonlari Azizbek va Ikromjon bo'ladi.
- B) A'zam ko'zi o'ynoqi va xotinboz yigit bo'lishi bilan birga boylikka o'ch bo'lgan toifalardan edi.
- C) Bir qishloqdan oq bo'lish hissiyoti bilan boshqa qishloqqa kelgan yosh yigit bu yerda o'z baxtini topadi.
- D) Hikoyada erkaklar kabi mahalla boshqargan, el koriga yaragan o'ktam qomatli qiz haqida tafsilotlar uchraydi.

14. Said Ahmadning «Ufq» romani bo'yicha noto'g'ri fikrni toping.

15. Tog'ay Murodning «Yulduzlar mangu yonadi» asari bo'yicha to'g'ri fikrni toping.

- A) Asarda chavandoz va kurashchilar o'rtasidagi yaqin aloqalar, qadriyatlar haqida so'z boradi.
- B) Qissada do'stlikning bir umrlik ginaga, adovatga aylanib qolgani, hatto bu kurash davralarida aks etgani bayon qilingan.
- C) Asarda ikki yurt (O'zbekiston va Tojikiston) odamlari o'rtasidagi nifoq va janjallar kishilar hayoti uchun naqadar achinarli vaziyatlarni keltirib chiqarishi yoritilgan.
- D) Qissada o'tgan buyuk ajdodlar ishidan cheksiz faxrlanish, ularga munosib avlod bo'lish uchun or talashgan polvonlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.
- 16.** Qaysi javobda Jek Londonning «Hayotga muhabbat» hikoyasiga oid bo'lgan to'g'ri fikr berilgan?
- A) Hikoya yovvoyi hayvonlarga qarshi qirg'in uyushtirgan ekspeditsiya a'zolari haqida asar sanaladi.
- B) Bill oltinlari evaziga kemada Kaliforniyaga bezatar yetib oladi.
- C) Asardagi odam yirtqichlar orasida omon qolish uchun suv kelsa, simirib, tosh kelsa, kemirib olg'a yuradi.
- D) Hikoyada odamxo'r ayiq va bo'rilarning ovchilar tomonidan yo'q qilinishi berib o'tilgan.
- 17.** «Oltin zanglamas» asari bo'yicha berilgan to'g'ri fikrni toping.
- A) Qodir Mirsalimning xoinligini tegishli idoraga yetkazishi nomardlik edi.
- B) Sodiq Dilovarxo'jadan jon qarzi borligi uchun doim unga ehtirom ko'rsatgan.
- C) Jonbolam xola ham o'zbek onasi, ham qaynonasi qanday bo'lishini ko'rsatib bergan.
- D) Asar voqealari O'zbekiston hududida bo'lib o'tadi.

Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Ekvator bu – Yerning aylanish o'qiga perpendikulyar bo'lgan va Yerning massa markazini o'z ichiga olgan tekislik bilan Yer yuzasining kesishishi. Oddiyroq qilib aytganda, bu Yer yuzasidagi xayoliy chiziq bo'lib, u hamma joyda Shimoliy qutb va Janubiy qutbdan teng masofada joylashgan. Aynan shu nuqtadan boshlab, kenglik hisoblab chiqiladi, yanayam boshqacha aytganda, bu – 0° kenglik chizig'i. Bu geografik yoki quruqlik ekvatori Yerni Shimoliy yarim sharga va Janubiy yarim sharga ajratadi. Boshqa sayyoralar va astronomik jismlarning ekvatorlari ruddi shunday aniqlangan.

1) «Ekvator» so'zi lotin tilidan kelib chiqqan. *circuus aquator diei et noctis* – «Kecha va kunduzni tenglashtiruvchi doira» degan ma'noni anglatadi. Bu atama dastlab samoviy ekvatorga nisbatan ishlatilgan, lekin bu sharni ikkita teng qismga ajratadigan ma'noni anglatadi.

Ekvator geograf uchun muhim belgi bo'lsa-da, ikki yarim sharni bo'lib, muhim hisob-kitob nuqtasini beradi, dengiz sayohatchisi uchun esa bu xaritada chiziq – o'lchov nuqtasi (ilgari yulduzlarda) – Yerning magnit qutblariga tegishli asboblardir.

2) Ekvatorning kengligi – ta'rifi bo'yicha 0° . Yer ekvatorining uzunligi taxminan 40,075 kilometr (24,901,5 milya). Ekvator – Yerning aylanish o'qi va Quyosh atrofidagi Yer orbitasi tekisligi o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan kenglikdagi beshta asosiy doiradan biri. Bu kenglikdagi yagona chiziq, u ham katta aylana hisoblanadi.

Quyosh osmon bo'ylab mavsumiy harakatida ekvator ustidan har yili ikki marta, mart va sentabr tengkunligida o'tadi. Ekvatorida bu sanalarda quyosh nurlari yer yuziga perpendikulyar bo'ladi. Ekvatorida joylashgan joylar dunyoda quyosh chiqishi va botishining eng tez tezligini sezadi. Yil davomida, kunduzi ham, kechasi ham 12 soatlik nazariy doimiylik mavjud (amalda atmosfera sinishi ta'siridan va quyosh chiqishi va quyosh botishi Quyosh diskining chetidan boshlab o'lchanishi tufayli bir necha daqiqalik farqlar mavjud). Ufqda uning markazidan ko'ra ekvatorning shimolida yoki janubida kunning davomiyligi mavsumga qarab o'zgarib turadi.

3) Yer ekvatorida biroz chayqaladi. O'rtacha diametri – 12750 kilometr (7922 milya), lekin ekvatorida diametri taxminan 43 kilometr (27 milya) katta.

Ekvator yaqinidagi joylar – kosmik portlar uchun yaxshi joy, masalan, Fransiyaning Gvianada hududida joylashgan Kourou shahrining Gviana kosmik markazi, chunki ular Yerning aylanishi tufayli Yerning boshqa nuqtalariga qaraganda tezroq harakat qiladilar va qo'shilgan tezlik yonilg'i miqdorini kamaytiradi, kosmik kemalarni uchirish uchun kerak. Shu tarzda ishga tushirilgan kosmik kemasi bu effektdan foydalanish uchun sharqqa uchishi kerak.

4) Yuqori aniqlikdagi ish uchun ekvator tepada aytilgan munozarada ko'rsatilgandek aniq emas. Haqiqiy ekvatorial tekislik har doim Yerning aylanish o'qiga perpendikulyar bo'lishi kerak. Bu o'q nisbatan barqaror bo'lsa-da, uning joylashuvi har yili taxminan 9 metr (30 fut) radiusli dumaloq harakatda aylanib yuradi.

Shunday qilib, haqiqiy ekvator biroz harakat qiladi. Biroq bu faqat batafsil ilmiy tadqiqotlar uchun muhimdir. Ta'siri juda kichik va deyarli har qanday xaritada ekvatorni belgilaydigan chiziqning kengligi xatodan ancha uzoqroq bo'ladi.

Ekvator yaqinidagi harorat yil bo'yi yuqori, nam mavsumda va balandlikdagi davrlar bundan mustasno. Ko'p tropik mintaqalarda odamlar ikki faslga ajratadilar: nam va quruq. Biroq ekvator yaqinidagi ko'p joylar yil davomida nam bo'ladi va mavsumlar okeanga ko'tarilish va yaqinlik kabi turli omillarga qarab o'zgarishi mumkin. Yomg'irli va nam sharoitlar ekvatorial iqlim dunyodagi eng issiq emasligini bildiradi.

18. Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan ma'lumotni aniqlang.
- A) Kosmik kemalarni fazoga uchirish uchun Fransiya hududi eng qulay joy hisoblanadi.
- B) Ekvator ustidan Quyosh aniq bir muddatda osmon bo'ylab mavsumiy harakat qilmaydi.
- C) Ekvator – Yer sharini teng to'rtga bo'lib turadigan xayoliy chiziq.
- D) «Circus aquator diei et noctis» faqat geograflar uchun zarur bo'lgan tushuncha, ulardan boshqa soha vakillariga unga doir ilm kerak bo'lmaydi.

19. Matn mazmuniga mos bo'lmagan ma'lumotni aniqlang.
- A) Ko'p tropik mintaqalar aholisi fasllarni ikkiga bo'ladi: issiq va sovuq, to'g'rirog'i, quruq va nam.
- B) Ekvatorning shimolida yoki janubida kunning davomiyligi mavsumga qarab o'zgaruvchidir: 12 soatlik nazariy doimiylilik mavjud.
- C) Yer ekvatorining kengligi hisoblab chiqilishi boshqa sayyoralar va astronomik jismlarning ekvatorlari hisoblanishidan butkul farq qilgan.
- D) Haqiqiy ekvatorial tekislik muntazam ravishda Yerning aylanish o'qiga perpendikulyardir.

20. Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalangan ma'lumotni aniqlang.

- A) Gvianada hududida joylashgan Kourou shahri Janubiy qutbdan teng 0° kenglikda joylashgan.
- B) Kosmik kemalarning fazoga uchirilishida Yerning hech bir nuqtasi yonilg'ining tejalishida dastak bo'lolmaydi.
- C) Ekvator chizig'ini xaritada ifodalash masalasi olimlar tomonidan o'rganilib chiqilmoqda.
- D) Ekvator yaqinidagi aksar joylar mavsumi okeanga ko'tarilish va yaqinlik kabi turli omillarga qarab o'zgarishi mumkin.

21. Matn mazmuniga mos NOTO'G'RI ifodalangan ma'lumotni aniqlang.
- A) Yer ekvatorida muqimdir, tebranmaydi.
- B) Kecha va kunduzni tenglashtiruvchi doira dengiz sayohatchisi juda asqotadi.
- C) Haqiqiy ekvatorning biroz harakat qilishi faqat batafsil ilmiy tadqiqotlar uchun muhim.
- D) Quyosh osmon bo'ylab mavsumiy harakati sababli 21-martda ekvator ustidan o'tadi.

22. Ajratib ko'rsatilgan qaysi qismda matnning mazmuniy tuzilishiga ko'ra o'ta ilmiylashmagan informatsiya berilgan?
- A) 4
- B) 3
- C) 1
- D) 2

Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

QOCHQINLIK POYONI

Kapitan bilan qo'l siqishimdim, u omad tiladi. Keyin yo'lovchilarga liq to'la pastki palubaga tushib, turtina-surtina narvongacha yetib oldim. Kema bortiga qarasam, yuklarimni allaqachon chiqarishibdi. Hamma yoqda qo'llarini silkitib, allanimalar haqida gap sotishayotgan shu yerlik odamlar. Menga ham joy topildi. Qirg'oqdan uch milcha uzoqlashganimizda salqin shamol esa boshlagandi. Shaharga yaqinlashganimizda ko'plab kokos daraxtlari-yu, ular orasidan ko'rinib turgan kulrang tomlarga ko'zim tushdi. Inglizchani biladigan xitoylik: mana, boshqaruvchining turar joyi, deb ayvonli oq uyni ko'rsatdi. Boshqaruvchining xabari bo'lmasa-da, men aynan unikiga qo'nmoqchi edim. Cho'ntagimda uning nomiga bitilgan tavsiyanoma bor edi. Meni tushirib, chamadonlarimni sohilga qo'yishganida bir muddat o'zimni yakkalanib qolqandek his gildim. Dunyoning bir chekkasidagi joyga, Barneoning shimoliy qirg'og'idagi shaharchaga kelib qolgandim. O'zimni mutlaqo begona odamga tanishtirishim, ulov kelib borar manzilimga jo'nab ketgunimcha uning kulbasida tunashim, osh-ovqatiga sherik bo'lishimni aytib, qo'lga tashrif qog'ozimni tutqazishimni ko'z oldimga keltirib xijolat bo'layotgandim.

Biroq hammasi ko'gildagidek bo'ldi. Ayvonli uyga yetib, tavsiyanomani ko'rsatganimda qayerdandir o'sha kishi paydo bo'ldi. Gavgali, yuzlari qip-qizil, ruxshaqchaq odam ekan. Yurakdan chiqarib so'rashdi. Qo'limni siqib, yugurdak bolaga ichkilik olib kel, deb baqirdi. Boshqa biriga narsalarimga qarab turishni buyurdi. UZR so'ramoqchiydim, gapim og'zimdagi qoldi. «Ey xudo, og'ayni, sizni ko'rganimdan qanchalik xursand ekanimni tasavvur ham qilolmaysiz. Lekin meni shu yerda qoldirish uchun bu gaplarni gapiryapti, deb o'ylamang. Yo'q, sizdan minnatdorligim uchun shunday deyaрман. Bu yerda xohlagancha yashashingiz mumkin. Istaangiz, bir yil qoling». Kulib yubordim. U ish qochib ketmaydi, deb yumushlarini bir chetga qo'ydi-da, o'zini katta kursiga tashladi. Suhbatlashdik, keyin ichdik, so'ng yana gap sotdik. Kechga yaqin salqin tushganda, jungli bo'ylab uzoq sayrga chiqdik. U yerdan suvga tushgan mushukdek ivib qaytib keldik. So'ngra yaxshilab cho'milib oldik-da, ovqatlandik. Juda charchagan edim. Mezbonim tuni bilan to'xtovsiz gurung berishga tayyor turgan bo'lsa ham, uzlashimga ruxsat so'rab iltimos qilishga majbur bo'ldim.

«Mayli, faqat sizni xonangizga kuzatib, hammasi joyidaligini ko'rib olaman».

Bu ikki tomoni ayvonli va chivin o'tkazmaydigan to'r bilan o'ralgan katta karavot qo'yilgan keng xona ekan.

«Karavot ancha qattiq, bo'laveradimi?»

«Ha yo'q, bugun toshday qotib uzlayman».

Mezbonim bir muddat karavotga qarab qoldi.

«Bunda oxirgi marta bir gollandiyalik uzlagandi. Bitta kulgili voqeani aytib beraymi?»

O'lguday uyqum kelayotgandi. Lekin, har qalay, u menga mezbon, qolaversa, kulgili voqeani aytib bermoqchi bo'lsang-u hech kim quloq solmasa, odamga og'ir botadi.

«O'sha golland ham siz kelgan kemada kelgandi. Idoramga kirib, uch-to'rt kun yashashga qayerdan joy topsam bo'ladi, deb so'radi. Agar borishga joyingiz bo'lmasa, menikida tura qoling, dedim. Darrov rozi bo'ldi. Yuklaringizni olib kelishga odam yuboraymi, deb so'radim.

«Bori shu», – dedi u.

Qora yaltiroq chamadonchani uzatdi. «Juda kambag'al ekanmi», deb o'yladim ichimda. Lekin bu yog'i endi mening ishim emasdi, xullas, unga uyimga boravering, ishimni tugatishim bilanoq men ham yetib boraman, dedim. Shu gaplarni aytib turganimda xonaning eshigi ochilib, yordamchim kirdi. Golland eshikka orqasi bilan turgandi, balki yordamchim eshikni qattiqroq ochgandir. Nima bo'lganda ham golland baqirib yuborib, ikki qadamcha joyga sakradi-da, revolverini chiqardi.

«Nima qilyapsiz, jin ursin?», – dedim men.

U yordamchimni ko'rib bukchayib goldi. Hars-hars nafas olib stolga suyandi. Agar aldasam, har narsa bo'lay, xuddi tutqanog'i tutgandek qaltirayotgandi.

«Kechirasiz», – dedi u. «Hammasi asabdan. Asablarim ishdan chiqqan».

«Ko'rinib turibdi», – dedim men.

U bilan sovuqqina gaplashdim. Rostini aytsam, unga menikida qol deganimdan pushaymon bo'lgandim. Ko'rinishidan mast odamga o'xshamasdi. Politsiyadan qochib yurgan bo'lsa-ya, degan fikr o'tdi miyamdanda.

«Yaxshisi, borib uxlab oling», – dedim.

U jo'nadi. Uyga qaytsam, ayvonda jimgina o'tirgan ekan. Lekin gaudasini tik tutib turgandi. Cho'milib, soqolini olibdi. Toza kiyim kiyib, ancha o'ziga kelib qolibdi.

«Nega ayvonda bu ahvolda o'tiribsiz? – dedim unga. – Yotib damingizni oling».

«Shunday o'tirganim yaxshi», – dedi u. Alomat odam ekan, dedim ichimda. Lekin shunday jaziramada yotgandan ko'ra qaqgayib o'tirishni afzal ko'rsa, bu endi o'zining ishi. Novcha, qoruvli gaudali, chorburchak kallasidagi sochi kalta olingan ko'rimsizgina odam edi u. Yoshi qirqlar atrofida, meni juda hayron qoldirgan narsa uning basharasi edi. Qisiq ko'k ko'zlarining alanglashiga sira tushunolmadim. Yuzi xuddi yig'lamoqqa tayyor turgan odamnikiga o'xshardi. Turib-turib, bir narsani eshitib qolgandek chap tomonga tez-tez alanglardi. Xudo shohid, uning asablari joyida emasdi. Lekin bir stakan musallas ichganimizdan keyin u tilga kirdi. Inglizchada juda yaxshi gapirardi, gapida bilinar-bilinmas soxtalikni aytmaganda, uning ingliz emasligini sezmasdingiz ham. Tan olish kerak, gapga juda usta edi. Ko'p joyda bo'lib, ko'p o'qigan ekan. Gapini eshitib vaqt o'tganini bilmay qolardingiz. Choshgohda uch yoki to'rt shisha viskini bo'shatdik, keyin yana ancha-muncha aroq ichdik. Xullas, tushlikka o'tirganimizda ikkovimizning ham kayfimiz chog' edi. «Bu zo'r odam ekan», deb o'yladim o'shanda. Turgan gap, ovqat ustida ham uch-to'rt shisha viskini urdik. Keyin qayerdandir bir shisha benidiktik topib oldim. Uni ham ichdik. Binoyidek mast bo'ldik. Nihoyat, u nega bu yerga kelganini gapirib berdi. O'sha voqea juda g'alati edi.

Mezbonim gapirishdan to'xtadi-da, o'sha g'aroyib voqeani eslaboq ta'sirlanayotgandek, og'zini xiyol ochganicha menga qaradi.

Sumatra orolida tug'ilgan ekan o'sha golland. Keyin achinlik bir odamga nimadir qilgan ekanmi, achinlik uni o'ldirishga qasam ichibdi. Dastlab golland bunga e'tibor ham bermabdi, lekin g'animi gapida turishga ikki-uch bor urinib joniga teggach, biror muddat chetroq joyga ketishga qaror qilibdi. Bataviaga o'tib, o'sha yoqda ayshini surib yurmoqchi bo'libdi. Lekin bu yerga kelganidan bir hafta o'tgach, devor orqasida yashirinib turgan achinlikka ko'zi tushibdi. Achinlik uning ortidan tushgan ekan. Golland g'animning niyati qat'iyiligini tushunibdi. Surabayyaga borishi kerakligini anglabdi. Bir kuni u shu shaharda aylanib yurib nima bo'libdi-yu, orqasiga o'girilibdi, qarasa, achinlik shundaygina izidan ovozi chiqarmay pusib kelayotgan ekan. Uning kapalagi uchib ketibdi. O'girilsang-u, seni o'ldirmoqchi bo'lib yurgan nusxa shundaygina orqangda turganini ko'rsang, qo'rqasan-da, albatta.

Xullas, golland tez-tez yurib, mehmonxonaga qaytibdi-da, narsalarini yig'ishtirib, Singapurga boradigan kemaga chiqibdi. Turgan gapki, u gollandiyaliklar qo'ngan mehmonxonaga joylashibdi. Bir kuni mehmonxona ro'parasidagi hovlida ichib o'tirgan ekan, ichkariga achinlik kirib unga birpas tikilib turibdi-da, chiqib ketibdi. Golland o'shanda dahshatdan qimir etolmay qolganini aytdi. Agar achinlik o'sha payt xanjarini sanchmoqchi bo'lganda, u o'zini himoya qilish uchun qo'lini ham ko'tara olmas ekan. Golland achinlik qulay paytni kutayotganini tushuntiribdi. Bu jirkanch kimsa uni o'ldirishni niyat qilgan ekan. Joni uzilayotgani ko'z oldiga kelsa, u o'zini tutolmay qolarkan».

«Nega u politsiyaga bormabdi?», — deb so'radim men.

«Bilmayman. Menimcha, politsiya bu mojarodan xabar topishini xohlamagan».

«O'sha odamga nima yomonlik qilgan ekan?»

«Buni ham bilmayman. Nima qilganini aytmadi. Lekin so'raganimda menga qarashidanoq kattagina ish qilib qo'yganini sezdim. O'ylashimcha, achinlikning har qanday jazosiga loyiqiligini uning o'zi ham tushunardi».

Mezbonim sigareta yoqdi.

«Keyin nima bo'ldi?» — deb so'radim men.

«Singapur bilan Kuching orasida qatnaydigan kemanding kapitani ham qatnov orasida o'sha mehmonxonada turadi. Kema tongda yo'lga chiqarkan. Golland achinlikdan qutulish uchun bu yaxshi imkoniyat, deb o'ylabdi. Yuklarini mehmonxonada qoldirib, xuddi kapitanni kuzatib qo'yayotganday u bilan birga kemaga chiqibdi va kema suza boshlaganda u yerga tushib qolibdi. Asabiylashish odatini shu vaqtlarda orttirgan ekan. Achinlikdan qutulishdan boshqa hech narsa haqida o'ylamay qo'yibdi. Kuchingda o'zini ancha yaxshi his eta boshlabdi. Mehmonxonadan joy olibdi. Xitoy do'konlaridan o'ziga juft kastyum, to'rt-beshta ko'ylak xarid qilibdi. Lekin uzlay olmas ekan, tushiga nuqul o'sha kimsa kirarkan. Olti martacha bo'g'ziga tortilayotgan xanjar damidan uyg'onib ketibdi. Xudo haqqi, unga juda rahmim keldi. U bu gaplarni menga qaltirab gapirdi. Qo'rqqanidan ovozi xirillab qolgandi. Uning ajabtovur qarashlariga endi tushundim. Esingizdami, gapimning boshida kulgili alanglashlarini ko'rib hayron bo'lganimni aytuvdim. Qo'rqqanidan shunaqa alanglarkan».

Bir kuni Kuchingdagi klubda derazadan tashqariga qarabdi va ko‘zi o‘sha yoqda o‘tirgan achinlikka tushibdi. Achinlik ham unga qarabdi. Golland egilibdi-da, hushdan ketibdi. O‘ziga kelganida miyasiga kelgan birinchi fikr bu joydan qochish bo‘libdi. Sizni olib kelgan o‘sha kema bilangina u Kuchingdan tezroq ketishi mumkin ekan. Kemaga chiqibdi. Achinlik kemada yo‘qligini aniq bilarkan».

«Lekin nega aynan bu yerga kelibdi?»

«Bilasizmi, boyagi kema ko‘p joylarda to‘xtaydi. Achinlik gollandning aynan bu yerga kelganda tushib qolganini bilolmasdi. Golland o‘zi o‘tirgan kema bu joylarda yo‘lovchi tashiydigan bitta-yu bitta kema ekanini, bortda o‘n ikkitacha odam o‘tirganini bilganidan keyingina undan tushgan.

«Har holda, bir-ikki kunga bo‘lsa ham, bu yerda xavfdan xoliman, — dedi u. — Ozigina vaqt bo‘lsayam tinch yursam, asablarimni bosib olaman».

«Xohlaganingizcha qoling, — dedim men. — Bu yerda sizga xavf yo‘q, har holda keyingi oy kema qaytguncha. Xohlasangiz, o‘sha payt borib yo‘lovchilarni tekshiramiz».

Qayta-qayta rahmat aytdi. Nihoyat, ko‘ngli taskin topgandi. Vaqt ham allamahall bo‘lib qolgandi. Uxlash payti bo‘lganini aytdim. Hammasi joyidaligini bilish uchun uni xonasiga kuzatib qo‘ydim. Hech qanday xavf yo‘q, desam ham derazalarni mahkamlab berkitdi. Xonadan chiqishim bilanoq orqamdan eshikni qulflaganini eshitdim.

Ertasi kuni ertalab dastyor bola choyimni olib kelganida, gollandni uyg‘otdingmi, deb so‘radim. Hozir uyg‘otaman, dedi u. Uning xona eshigini qayta-qayta taqillatayotgani eshitildi. Nimadir bo‘lganini sezdim. Bola bor kuchi bilan taqillatganda ham ichkaridan sado chiqmadi. Asabiylashib, o‘rnimdan turdim. Men ham taqillatdim. Ikkalamiz murdani tiriltirib yuborguday shovqin ko‘tardik, lekin golland uyg‘onmadi. Shunda eshikni sindirdim. Karavotni o‘ragan chivin o‘tkazmaydigan pardani uzdim. Golland karavotda ko‘zini chaqchaytirganicha tepaga qarab yotardi. U o‘lgan edi. Bo‘yniga xanjar qo‘yilgan edi. Gapimga ishonasizmi, yo‘qmi — bu o‘zingizga havola, lekin xudo haqqi qasam ichib aytamanki, bu — rost, uning biror joyi hatto tirmalmagan. Xona esa bo‘m-bo‘sh edi.

Kulgili voqea, to‘g‘rimi?»

«Endi, bu kulgini qanday tushunishga bog‘liq», — deb javob berdim men.

Mezbonim menga qarab qo‘ydi.

«Shu karavotda uxlayverasiz-a, yo yo‘qmi?»

«Yo‘q, uxlayveraman. Lekin shu voqeani ertaga gapirib berganingizda yaxshi bo‘lardi».

Alisher Otaboyev tarjimai

23. Asar qahramonlari haqida to‘g‘ri fikrni toping.

A) Golland mehmon aldagan, u shunchaki ruhiy xasta bo‘lib, shifoxonadan qochgan bo‘ladi.

B) Boshqaruvchi yetarli mol-dunyo va obro‘ga ega bo‘lishiga qaramasdan, ancha samimiy inson edi.

C) Achinlik o‘ta uddaburon va o‘z ishining ustasi bo‘lganligidan qotillikni beiz amalga oshiradi.

D) *Mehmondo'st xonadon sohibining xizmatkori o'ta agressiv va asabiyligidan mehmon eshigini buzguday taqillatadi.*

24. Hikoya mazmuniga mos kelmaydigan maqolni toping.

- A) *Buzoqning yugurgani – somonxonagacha.*
- B) *Bedananing uyi yo'q, Qayga borsa «bit-bildi».*
- C) *Oltin chirimas, Da'vo qarimas.*
- D) *O'sma ketar, qosh qolar, Begona ketar, o'z qolar.*

25. Matnda ajratib ko'rsatilgan gap asar qahramonining qaysi ruhiy holatini ochib berish uchun qo'llangan?

- A) *Asar qahramonining hech qachon yolg'iz qolmaganini shu gap orqali o'rtaga tashlab o'tilgan.*
- B) *Asar qahramoni o'zining yangi sohibi qanday odam ekanligini bilmay, boshi garang holda aks ettirilgan.*
- C) *Asar qahramoni o'z safdoshlaridan ajralishga to'g'ri kelganini achinish bilan yodga olgani ifodalangan.*
- D) *Asar qahramoni begona elda qandaydir noqulay vaziyatga tushib, nima qilarini bilmay qolgan odamdek holga tushgani tasvirlangan.*

26. Matndan qanday xulosa hosil bo'ladi?

- A) *Sumatra orolida tug'ilgan o'sha gollandni vasvasa, qo'rquv nobud qilgan.*
- B) *Boshqaruvchi muloyim ko'ringani bilan uyiga kelgan mehmonlarning yoqmaganini o'limga o'zi hukm qilib yubora qolgan.*
- C) *Achinlikka o'xshagan odamlar faol ijtimoiy qatlamda ongi past insonlar deb qaraladi.*
- D) *Asarning bosh qahramoni bir mudhish jinoyatga qo'l urgani bois o'zini ta'qib etayotgan «sharpa»ni politsiyaga topshira olmagan: o'zi ham qamalib ketishi mumkin. Tilli qolib tilsizga tobelanilgan hikoyani*

27. Hikoya bo'yicha noto'g'ri xulosani toping.

- A) *Asar qahramonining «Kulgili voqea, to'g'rimi?» degan gapini «Ayanchli voqea, to'g'rimi?» deyish haqiqatga yaqinroq.*
- B) *Asarnig bosh qahramoni saviyali va bosiq odam edi.*
- C) *Boshqaruvchi o'z jinoyatini yashirish uchun bir talay yolg'on hikoyalarni to'qib tashlagan.*
- D) *Hikoyaning xulosasi shuki, jinoyat jazosiz qolmagan.*

G'azalni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

- 1) *Zavraq ichra ul quyosh sayr aylamas Jayhun aro, Axtari sa'di hilol ichra kezar gardun aro.*
- 2) *Anglamon: Jayhunda ul oy kema birla sayr etar, Yo hilol-u mehr aksin el ko'rar Jayhun aro.*

- 3) *Kemadin har dam chiqib rangin su ko'zum qonidek,
Anda yor andoqki mardum didayi purxun aro.*
- 4) *Borgil, ey Majnunki, ul oy zavraqidek tez emas,
Jo'ngkim, Laylo amorasin chekar homun aro.*
- 5) *Olma xum girdobidin bir lahza sog'ar zavraqin,
Bahri g'amdin istasang maxlas bu dahri dun aro.*
- 6) *Bahr mavjiddin mushavvashbo'lmasun deb xotiring,
Mavj urar yuz bahri g'am bu xotiri mahzun aro.*
- 7) *Dur bo'lur bahr ichra pinhon nazmidin shah madhida,
Bahr yoshurmish Navoiy har duri maknun aro.*

Tayanch so'zlar izohi:

*Zavraq-qayiq
Jayhun-Amudaryo
Axtari sa'd
Hilol-yangi oy
Gardun-charxi falak, osmon
Mardum-odamlar, bu yerda ko'z qorachig'i
Purxun-qonga to'la, qonli
Jo'ng-kema
Amora-odam tashish uchun tuyaga ortiladigan kajava
Homun-sahro, cho'l
Sog'ar-sharob ichadigan kosa, piyola, qadah
Maxlas-haloslik, qutilish
Dahri dun-dunyo
Mushavvash-parishon, tashvishli, beorom odam
Mahzun-hazin, g'amli, tashvishli
Maknun-yashirin*

- 28.** Matla' mazmuni TO'G'RI izohlangan javobni belgilang.
- A) *Oshiq uchun mahbuba Amudaryoda suzib borayotgan oy misolidir.*
- B) *Mahbuba yuzi baxt yulduziga qiyos etilgan.*
- C) *Oshiq o'zini quyoshga, yorini oyga teng qilgan.*

D) *Kema (zavraq) yangi oy o'rog'iga (yangi chiqqan oy) shaklan o'xshatilgan (Xuddi «Sab'ai sayyor»da Mehr kemasi kabi).*

- 29.** 2-bayt mazmunida AKS ETMAGAN fikrni aniqlang.
- A) *Tajohuli-orif orqali yor jamoli mubolag'a qilingan.*

- B) «Oy» so'zi orqali istiora san'ati hosil qilingan.
 C) Quyosh nurining Amudaryo suvini bug'lantirishi yor timsolida jonlantirilgan.
 D) Yor «nurli yuz» va «oyday go'zal» tashbehtariga loyiq ko'rilgan.

30. 3-bayt mazmuni NOTO'G'RI izohlangan javobni belgilang.

- A) Mahbuba ayriliq azobidan qalbi yara, yaradan esa tinmay qon sizmoqda.
 B) Kemadan qizil qonday suyuqlik betinim oqayotganligi aytilgan.
 C) Ko'z yoshiga g'arq insonni tasavvur qiling, tikilsangiz, yosh tomchilari ichra ko'z gavhari yaltillab ketaveradi, mo'ltillab ketaveradi. Shu alpozdagi qorachiq yorga o'xshatilgan.
 D) Kema misli ko'z soqqasi, yor esa mardum (ko'z gavhari) dir.

31. 4–5-baytlar mazmuni TO'G'RI izohlangan javobni belgilang.

- A) Har ikki baytda ham qayiq nimagadir qiyos etilishi (tuya/kosa) bilan e'tiborga molik.
 B) 4-baytda Laylining betakror go'zalligi ta'riflangan.
 C) 5-baytda dunyo pastkash, g'amga to'la, ammo g'am dengiz mavji sabab qablardan yuviladi.
 D) Kema tezligi tuya tezligidan yuqori bo'lolmaydi; dunyo anduhlari may sabab (faqat majoziy ishqqa ko'ra) unut bo'ladi.

32. 6–7-bayt mazmuni NOTO'G'RI izohlangan javobni belgilang.

- A) 6-baytda lirik qahramon kayfi chog', shodon ruhda tasvirlangan.
 B) Dengiz duri qiymat jihatdan Navoiy she'riyati (nazm) dan a'loligi aytib o'tilgan.
 C) 1–2-baytlarda daryo, 6–7-baytlarda dengiz tilga olinishi ramziy ifodaga ega.
 D) Shoh (deylik, Husayn Boyqaro) – she'r emas, balki dur shaydosi.

Gaplar (33, 34, 35) va sintaktik tahlilga izohlar (A-F) ni to'g'ri moslashtiring.

<p>33. Behi, anjir murabbosimi, bay-bay?!</p>	<p>A) Uyushiq bo'lakdagi omonim so'z har ikki ma'nosida qo'llana oladi.</p>
<p>34. Tin, orom olish foydangga ishlaydi.</p>	<p>B) His-hayajon gap C) Nisbiy so'zli qo'shma gap D) Qismlari buyruq gapli qo'shma gap</p>
<p>35. Yorim qayerda bo'lsa, xayolim – o'sha yerda.</p>	<p>E) Aynan kesimi urg'uli gap F) To'liqsiz gap</p>

haqiqati qiymatlidir. Bundan tashqari, ayni kunlarda dunyo hamjamiyatini aynan immigrant-muhajirlar muammosi ham tashvishga solayotgani hech kimga sir emas. Ular mamlakatlar iqtisodiyoti uchun ham, siyosati uchun ham yetarlicha ortiqcha yukdir. O'zbekiston ham ko'p millatli mamlakat. Yurtimizda rus, qirg'iz, qozoq, tatar, koreys va boshqa ko'plab millat vakillari istiqomat qiladilar. Ammo ulardan so'ralsa, beixtiyor Vatandan so'z ochadilar. Bu borada gap ketganda Bobur, Furqat kabi ajdodlarimizni yodga olish maqsadga muvofiqdir. Kuni kecha «O'zbekiston – 24» telekanalida ham sayohat, ham tijorat maqsadida yo'lga chiqqan bir inson ikki oy mobaynida Vatandan yiroqda bo'lgan va qaytgach: «O'sha diyordlarda qolib ketib, yurtimdan nasibam uzilib, vataning qayta olmaslik qo'rquvi meni vahimaga soldi», – deb intervyu bergani ta'sirlidir.

Mening fikrimcha, jamiyki insonlar uchun ularga makon qilib berilgan yer azizdir va shu yerdagina huzur-halovat, xotirjamlik mavjud. Zero: «Tug'ilib o'sgan uyning ostonasi ham Vatandir».

Xulosa shuki, inson o'z tug'ilib o'sgan vatanini qayerda hayot kechirishidan qat'i nazar, e'tiqodiga qarshi bormasligi, o'zi yoki ota-bobolari kamol topgan yurtini qadrlashi va isnod keltirmasligi darkor. Munaqqid Ozod Sharafiddinov ta'birlari bilan aytganda: «Tuproq ham o'zi yaratilgan joydagina aziz va qiymatli bo'la oladi, begona joyda u keraksiz va shunchaki qadrsizdir». Zero, millatimizning ertangi kuni esa aynan Vatanning har bir qarichini aziz biluvchilar qo'lidadir.